

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

2026 Vol. 1

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2026 Vol. 1

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Nurboy Jabborov, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshaboyeva, Zulkumor Xolmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Muzaffar Komilov (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Alizoda Saidumaran (Tojikiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Almaz Uvli (Ozarbayjon)	

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal. Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief:

Nozliya Normurodova

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Nurboy Jabbarov, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islamov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshabaeva, Zulxumor Kholmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Muzaffar Komilov (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Tanju Seyhan (Turkey)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Almaz Uvli (Azerbaijan)	

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Munavvara Qurbonova

Bolalar nutqida emotsional deysisning voqelanishi6

Nurbek Ahmadjonov

O'zbek va nemis rahbar-muloqot diskursida nutq odobi va uning lingvistik aspektlari24

Aynel Mashadiyeva

Turkiy tillar va dialektlardagi sifatdoshlarning qiyosiy-tarixiy tadqiqi41

Firuz Abdusalomov

Zamonaviy media diskursida harbiy leksikaning semantik transformatsiyasi58

Elnare ALIYEVA

Türk Dillerinde İsimlerde Çoğulluğun Bazı Özellikleri71

ADABIYOTSHUNOSLIK

Almaz Ülvi BİNNƏTOVA

Ensiklopedik Təfəkkürə Malik Mənəviyyat Memarı (İsrafil Məmmədovun “Uç, göyərçinim, uç” əsəri haqqında ədəbi qeydlər).....83

Mohida Qodirova

Tarixiy manbadan badiiy talqinga: Esondavlat begim obrazining ingliz tarixiy romanlaridagi interpretatsiyasi95

TARJIMASHUNOSLIK

Yorkinoy Nasirdinova

“La Fermeté des faibles” – So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” pandnoma asarining ilk fransuzcha tarjimasi.....107

Ilhom Xolmuminov

Badiiy hikoya tarjimasining kognitiv mexanizmlari va paradigmatic modellashirish119

SOTSILOGIYA

Komil Kalanov

Sun'iy intellekt texnologiyalarining sotsiologik diskurs tahlili133

ETNOLOGIYA. ETNOGRAFIYA. ANTROPOLOGIYA

Adhamjon Ashirov

Samarqand bozorlari tarixi va o'ziga xos xususiyatlari156

CONTENT

LINGUISTICS

Munavvara Kurbanova

The realization of emotional deixis in children's speech6

Nurbek Ahmadjonov

Speech Etiquette and its Linguistic Expression in Uzbek and
German Leadership-Communication Discourse24

Aynel Mashadiyeva

Participles in Focus: a Comparative-Historical Study in Turkic
Languages and Dialects41

Firuz Abdusalomov

Semantic Transformation of Military Lexicon in Contemporary
Media Discourse58

Elnare ALIYEVA

Particular Features of Noun Pluralization in Turkic Languages71

LITERATURE

Almaz Ulvi BINNATOVA

Encyclopedic Thinking and the Artistic Representation of Spiritual
Memory (Literary notes on Israfil Mammadov's work "Fly, my
dove, fly").....83

Mohida Qodirova

From Historical Source to Artistic Interpretation: the Portrayal
of Esondavlat Begim in English Historical Novels.....95

TRANSLATION STUDIES

Nasirdinova Yorkinoy

"La Fermeté des faibles": The First French Translation of Sufi
Olloyor's Didactic Work *Sabot ul-ojizin*.....107

Ilhom Kholmuminov

Cognitive Mechanisms and Paradigmatic Modeling of
Literary Translation.....119

SOCIOLOGY

Komil Kalanov

Sociological Discourse Analysis of Artificial Intelligence Technologies ..133

ETHNOLOGY. ETHNOGRAPHY. ANTHROPOLOGY

Adhamjon Ashirov

The History and Distinctive Features of Samarkand Markets156

**ETNOLOGIYA. ETNOGRAFIYA. ANTROPOLOGIYA
ETHNOLOGY. ETHNOGRAPHY. ANTHROPOLOGY****Samarqand bozorlari tarixi va
o'ziga xos xususiyatlari**Adhamjon Ashirov¹**Abstrakt**

Maqolada tarixiy-etnografik manbalar asosida Sharq bozorlari tarixi, o'ziga xos etnomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. O'rta chog'larda sharq bozorlarining ma'muriy markaz sifatida ommalashishida chorsu, tim va karvonsaroylarni paydo bo'lishi tarixi, me'moriy tuzilish hamda jamiyat hayotida tutgan o'rni borasida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, mintqa bozorlari, jumladan, Samarqand bozorlarining o'ziga xosligin ko'rinishlari ixtisoslashgan, jumladan, oziq-ovqat, kiyim-bosh (to'n, poyabzal, do'ppi), ipak, zargarlik, temirchilar, qog'oz, paxta, g'alla, guruch, baqqollik mollari bilan savdo qilinadigan bozorlar, hafta kunlari bilan bog'liq "Payshanba bozor", "Juma bozor" kabi bozorlar bilan birgan chorva, xususan, "ot bozor", "qo'y bozor", "mol bozor"lari tarzida namoyon bo'lishi hamda ularning etnolokal xususiyatlari bilan birga lokatsiyasi borasida ham yangi ma'lumotlar ilgari surilgan.

Maqolada muallif tomonidan Samarqand bozorlari shahar iqtisodiyotining yetakchi sohasi – hunarmandchilik bilan shahar atrofidagi mahallalar, *bir tomondan*, qishloqlar hamda qo'shni mintaqalar o'rtasida asosiy aloqa bo'g'ini ekanligi, *ikkinchidan esa*, qishloqlardagi iqtisodiy taraqqiyot, shahar xo'jaligining rivojlanishida asosiy omil bo'lganligi ilmiy asosda isbotlangan. Qolaversa, aynan bozorlarning etnomadaniy va ijtimoiy maskan tarzida kishilik tarixida tutgan o'rni borasida muhim ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'z va iboralar: *bozor, savdo, savdogar, rasta, aloqa, chorsu, tim, baqqol, sarrof, tovar, mahalla, qishloq, guzar.*

Kirish

Sharqda azal-azaldan bozorlar savdo joyi, iqtisodiy aloqalar

¹ *Adhamjon Azimboyevich Ashirov* – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

E-pochta: adhashirov@yandex.ru

ORCID ID: 0000-0002-3484-1647

Iqtibos uchun: Ashirov, A. A. 2026. "Samarqand bozorlari tarixi va o'ziga xos xususiyatlari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 156 – 168.

markazi bo'lishi bilan birga turli xalqlar o'rtasidagi etnomadaniy va ijtimoiy institut tarzida ommalashgan. Boshqasiga ifodalaganda, sharqona bozor – bu iqtisodiy tizimning bir qismigina emas, balki madaniy meros, ijtimoiy aloqalar va milliy o'zlikni namoyon etuvchi makon bo'lgan. Aynan bozorlarda turli xalqlarga xos madaniyat, qadriyatlar va tarix yorqin namoyon bo'lgan.

O'zbeklarda bozorga borib, savdo-sotiq qilib kelishni “*bozor-o'char qilish*” deyiladi. Xo'sh, shu o'rinda haqli savol tug'iladi; **bozor** degani, savdo qilinadigan joy ekanligi ma'lum, lekin **o'char** degani qanday ma'noni anglatadi? “**Bozor**” so'zining eroniy tillardagi qadimiy shakli **vazar**, ilk davrlarda **vachar**, **vatsal**, so'g'diy matnlarda **vatsar** bo'lib, ma'nosi – bozor, savdo qiladigan joydir [Расторгуева, Молчанова 1981, 55]. O'zbek tilida **bozor-o'char** juft so'z, sinonim va bir o'zakdan hosil bo'lgan. **O'char** “vachar” so'zining adaptatsiya shakli, so'gd tilidan o'zgartirib qabul qilingan, **vachar** qadimiy eroniy tillardan fors-tojik tiliga **bozor** shaklida o'tgan. Demak, bundan shuni anglash mumkinki, o'zaro aloqalar markazi bo'lgan “bozor” so'zining yasalişida ham turli xalqlarning madaniy aloqalari aks etgan.

Shaharlarning yirik savdo markazlariga aylanishida savdo-sotiq munosabatlari amalga oshiriladigan bozorlarning ahamiyati beqiyos bo'lgan. Qolaversa, shaharlarning mavjudligini ko'rsatuvchi belgilardan biri – bozorlarga doimo alohida ahamiyat berilgan. Bozorlarning katta-kichikligi, boyligi va boshqa jihatlari shaharlarning mamlakatda tutgan o'rni va siyosiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan [Арзамова 2000, 39]. Agar mamlakat o'z boshidan iqtisodiy tanazzulni boshdan kechirayotgan bo'lsa, bozorlarning ahvoli og'irlashgan. Yoki aksi bo'lsa, bozorlar gullab-yashnaganligini kuzatish mumkin.

Turon bozorlarining atalishi, xalq hayotidagi o'rni

Tarixiy manbalarining guvohlik berishicha, Turonda bozor iqtisodiyoti ixtisoslashib, professional mashg'ulotga aylangan holda 9–10-yuzyilliklarda paydo bo'lgan, 15-yuzyillikning oxiri – 16-yuzyillikda yanada rivojlangan. Ayniqsa, ushbu davrda ichki va tashqi savdo ham rivojlangan hamda ushbu holat, xususan, Samarqand va Buxoro kabi shaharlarning qiyofasida yorqin namoyon bo'ladi. 18–19-yuzyillikda Buxoro, Samarqand, Xiva, Marg'ilon, Toshkent, Namangan, Qo'qon shaharlari o'rni ortgan va mazkur markazlarda yirik ixtisoslashgan hamda mayda bozorlar faoliyat ko'rsatgan.

Turon bozorlarining qurilishi jihatidan bir qancha umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan. Odatda, bozorlar odamlar gavjum bo'ladigan shaharning markaziy qismida, katta ko'chalar kesishgan yerlar va ko'chalar bo'ylab vujudga kelgan. Yirik shaharlarda tijoriy ishlab chiqarishni o'zida aks ettiradigan bitta asosiy bozor bo'lgan. Bunday bozor ko'pincha asosiy ko'chalar kesishadigan joylarda o'rnashgan bo'lib, "chorsu", "choxarsu" deb yuritilgan. "Chorsu" so'zi, dastlab, zardushtiylarning muqaddas "Avesta" kitobida *chovrusuq* (to'rt tomonlama) shaklida uchraydi va "bozor" ma'nosini anglatgan. Keyinchalik ushbu atama *chaharsu* va nihoyat, *chorsu* shaklini olgan [Қопаев 1978, 150]. Chorsular asosan, usti yopiq gumbazli bozorlar bo'lib, ularning mayda ostki bo'limlarda ma'lum mollar sotilar edi.

19-yuzyillikka oid tarixiy manbalarida Samarqand Chorsusiga Registon yaqinidagi chorrahada joylashgan usti yopilgan va har tomondan chiqish mumkin bo'lgan "tosh (g'isht)dan" qurilgan savdo inshooti deb ta'riflar berilsa, Shahrisabz hamda Qarshi *chorsusi* "uncha katta bo'lmagan, usti gumbaz bilan yopilgan aylana shaklidagi inshootlar", deb ta'riflanadi [Хорошихин 1876, 193]. Lekin, aslida Shahrisabz *chorsusi* ham qurilgan davri (1598–1602-yillar)da va keyinchalik ham shaharning bosh savdo inshooti hisoblangan. To'rt tomondan kelgan yo'llar sahni ushbu savdo timining o'rtasida ulkan gumbaz tagida kesishgan. Uning ostidagi savdo rastalari bo'ylab to'rt burchakli xonalar joylashgan. Bunday xonalar hozir ham savdo inshooti sifatida foydalaniladi [Зоҳидов 1996, 126]. Bundan tashqari, fors tilida yozilgan manbalarda *chaharbozor* (chorbozor) degan so'z ham uchraydi¹.

Turonda qadimdan Chorsu bilan birga rasta deb yuritiladigan maxsus joylar, *tim* va toq deb ataladigan qubba ko'rinishidagi bozorlar ham bo'lgan. *Tim* so'zi juda qadimiy bo'lib, bir necha ma'nolarni anglatgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida usti yopiq bozor yoki rasta tomi *tim*, bozor qorovuli esa *timbon* deb ataladi. Arablar kelmasidan ilgari Turonda *Tim* deganda, har qanday bozor tushunilgan va ushbu atamaning "bozor" ma'nosi so'nggi vaqtlargacha saqlanib qolgan. *Tim* so'zi Tojikistonning Mug' tog'idan topilgan qadimgi (8-yuzyillik) so'g'd yozuvlari va arab tilidagi manbalarda ham uchraydi. So'g'd tilida esa *Tim* "do'kon", "savdo binosi" ma'nolarini anglatgan [Қопаев 1978, 121 – 122]. Shuningdek, arab sayyohi Yoqutning yozishicha (X asr), Xurosonda *tim* "karvonsaroy" ma'nosini anglatgan. Fors tilidagi

¹ Yana shuni ta'kidlash kerakki, *suq* so'zi arab tilida ham bozor ma'nosini anglatadi. Buxorodagi bir guzar bozor nomi bilan *Suqitarohi* deb atalgan. Bu haqda qarang: [Қопаев 150].

lug'atlarda ham Timga "karvonsaroy" deb izoh berilgan.

Timlar arxitektura jihatdan uzunchoqroq shaklda, g'ishtdan qurilgan bo'lib, usti yopiq savdo inshootini tashkil qilgan. Unda turli rastalar joylashgan. *Toqlar* esa me'moriy jihatdan kvadrat, olti qirrali yoki sakkiz qirrali, usti gumbaz bilan yopilgan, g'ishtdan qurilgan inshootlar bo'lib, ularning ichki devorlariga yopishtirib bunyod etilgan hujralar do'konlar vazifasini o'tar edi [Арзамова 2000, 44].

Sharq bozorlari xalqning aql-zakovati va qo'l kuchi bilan yetishtirgan mahsulotini oldi-sotdi bilan almashadigan, turmush-tarzi uchun zarur bo'lgan buyumlarni xarid qiladigan o'ziga xos bir manzil hisoblangan. Shuningdek, bozor – mollarning narxini belgilaydigan joy ham hisoblangan. Bozorda mas'ul odamlar mollarning narxlari, tarozi, palla va qantarlarni nazorat qilgan. Markaziy davlat boshqaruvchilari narxlarni nazorat ostida tutishga harakat qilganlar. Masalan, Amir Temur bozordagi oshiqcha narx ortishlari uchun og'ir jazolar tayinlagan.

Bozorlarda mahalliy hunarmadlar tomonidan yasalgan turli kundalik ehtiyoj mollaridan tortib har xil hunarmandchilik sohalari uchun zarur bo'lgan xom-ashyo mollari, mohir ustalar tomonidan yuksak did bilan bilan yasalgan badiiy hunarmandchilik buyumlari bilan bir qatorda qo'shni shaharlar, mamlakatlar va dasht aholisi tomonidan yetishtirilgan hamda ishlab chiqilgan mollar bilan keng savdo qilingan.

Samarqand bozorlari tarixi, muayyan turga ixtisoslashishi

Shaharlarning yirik savdo markazlariga aylanishida bozorlarning ahamiyati katta bo'lgan. Ma'lumki, Samarqand bozorlari juda qadim zamonlardan ma'lum va mashhur bo'lib, o'rta asrlarda bu yerda bo'lgan arab sayyohi Al Istaxriy shahar bozori haqida shunday yozadi: "Samarqand bozorlarining markazi Rasat toqidir. Unga bog' va qasrlardan ko'ra ikki marta ko'proq ko'chalar, bozor-u rastalar borib tutashgandir. Bog'i bo'lmagan biron bir hovli biron ko'cha yo'q. Qo'rg'on devorining ustiga chiqsang ham shahar (binolar)ni ko'rolmaysan. Chunki, bari bog'-u xiyobonlarga burkangan. Bozorlarning ko'pi ravotda, asosiy savdo-sotiq ham o'sha yerda, ichki shaharda esa savdo ahli kam. Bu shahar Movarounnahrning barcha yo'llari tutashgan joydir. Savdo tijorat ahli shu yerda to'planadi. Movarounnahrda yetishtirilgan va ishlab chiqarilgan butun boylik avval Samarqandda jam bo'lib, keyin boshqa o'lkalarga shu yerdan tarqaladi" [Истахрий 2019, 158].

Darhaqiqat, Samarqand bozorlari uzoq o'tmishdan Turonning eng yirik savdo markazlaridan biri bo'lgan.

Sharq bozorlarining topografik jihatdan joylashishi diqqatga sazovordir. Shaharning markaziy qismida, asosan, zargarlar, sarroflar, temirchilar, turli kiyim-kechaklar bilan savdo qiluvchi va boshqa ko'pgina bozorlar joylashgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi hamda chorva bozorlari shaharning cheti yoki uning tashqarisida joylashgan. Bunday manzarani Samarqand bozorlarining bugungi ko'rinishida ham kuzatish mumkin. Jumladan, Samarqandning mashhur Siyob bozori shaharning markaziy qismida joylashgan bo'lsa, shahardan chiqaverishda Maroqand, Ayniy va Arabxona nomli mol bozorlari mavjud bo'lgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ba'zida chorva bozori sotilayotgan hayvon turiga qarab "Ot bozor", "Qo'y bozor", "Mol bozor"ga bo'lingan. Bunday bozorlar atrofida o'z navbatida, chorva uchun zarur bo'lgan pichan va yem-xashak bozorlari bo'lgan.

O'rta asrlardan boshlab Samarqandda hunarmandchilik rivojlanishi bilan bozorlar ko'paygan va ma'lum bir mahsulotlarni sotishga ixtisoslashgan bozorlar paydo bo'lgan. Bozorlarning har birida aksariyat bir xildagi mollar sotilar edi, bozor esa sotiladigan mollar nomi bilan atalgan. Mashhur davlat arbobi va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand shahri to'g'risida yozar ekan, uning bozorlari haqida quyidagilarni qayd etadi: "Samarqand shahri ajab orasta shahredur, bu shaharda bir xususiyati borkim, o'zga kam shaharda andoq bo'lgay. Har xirfgarning bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut emastur, tavr rasmedur" [Bo'gyp 1989, 46]. Darhaqiqat, aynan o'rta asrlardan boshlab bozorlar maxsus mahsulotlar sotishga ixtisoslashgan bo'lib, shahar bozorlari odatda, markazda joylashgan. Unda turli mollarni sotishga mo'ljallangan savdo rastalari, savdogar hamda hunarmandlar do'konlari, karvonsaroylar, choyxona va boshqa maishiy binolar ishlab turgan. Odatda, yirik shaharlarda bir emas, bir nechta bozorlar faoliyat ko'rsatgan. Masalan, 1900-yilda birgina Samarqand shahrining o'zida maxsus savdo rastalari bilan jihozlangan o'ndan ortiq bozorlar faoliyat yuritgan.

Bozor o'rtasida alohida maydon mavjud bo'lib, u yerda ham turli mollar bilan savdo qilingan. Yirik shahar bozorlarining ma'lum qismlarida alohida bir mollar bilan savdo qilingan. Ya'ni, har bir bunday bozorlarda paxta, g'alla, guruch, baqqollik mollari bilan savdo qiladigan, kiyim-bosh (to'n, poyabzal, do'ppi) bozorlari mavjud bo'lgan. Bir qator bozorlarning alohida qismida chorva mollari

bilan ham savdo qilingan, lekin bunday bozorlar odatda, shahar chetida tashkil qilingan. Shuningdek, aholining zich joylashganligi va atrof-hudud qishloq xo'jaligi ekinlari bo'lganligi uchun chorvani ko'paytirish imkoni bo'lmagan va u ham yon-atrofini dasht zonalaridan keltirilgan hamda aholining go'shtga bo'lgan talabini qondirgan. Urgut va G'o's bozorlariga qoramol, qo'y, echki, asosan, Pstdarg'omdan keltirilgan. Shuningdek, aynan mazkur bozorlarga sotish uchun beda, somon, yantoq va yem ham keltirilgan.

Mol buyumlarning o'z rasta-bozorida sotilishi xaridorlarga har jihatdan qulay bo'lishi bilan birga, ushbu mahsulotlarning ozko'pligi yaqqol ko'rinib turar, xaridor esa o'ziga ma'qulini tanlash imkoniga ega bo'lishi bilan ham qulay hisoblangan.

Bozorlarning maxsus rastalarga bo'linishi hozirgi kundagi Samarqand bozorlari tuzilishida ham saqlanib qolgan. Jumladan, Samarqandning mashhur Siyob, Urgut, G'o's bozorlari ham maxsus mahsulotlar va buyumlar sotiladigan rastalarga bo'lingan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, XX asr boshlarida mashhur Siyob bozori quyidagicha tartibda tuzilgan edi: attorlik, charxchilik, pichoqchilik, temirchilik, misgarlik, beshikchilik, kulolchilik, zargarlik, sarroflik, sarrojlik, choyfurushlik, tikuvchilik, chopondo'zlik, do'ppido'zlik, maxsido'zlik, etikdo'zlik, kavushdo'zlik, tunikachilik, taqachilik, gilam, namat, bo'yra, nos, tamaki, gul, ko'chat, qandolat, guruch, bug'doy, mosh, mayiz, ho'l meva va sabzavot, go'sht kabi qator rasta bozorlar tizilib ketgan edi. Ayniqsa, bularning orasida mashhur Samarqand nonlarini sotuvchi rastalar alohida nufuzi bilan ajralib turgan. Samarqand haqida yozgan Zahiriddin Muhammad Bobur "Xub nonvoliklari va oshpaziliklari bordur", deb qayd etgan edi [Bobur 1989, 46]. Darhaqiqat, Samarqand nomini olamga taratgan ne'matlardan biri bu – uning nonlaridir. Samarqand nonlarini, asosan, shaharning Galaosiyo va Ko'lobod guzarlarining o'zbek hamda tojik aholisi tayyorlagan. Shaharga non yopish uchun bug'doy G'allaoroldan olib kelingan bo'lsa, tandir shahar chekkasidagi Konigil mavzesida olinadigan gilmoyaga echki va ot junlaridan qo'shib tayyorlangan. Tandirni ko'pincha Dahbedi guzarida yashovchi ustalar yasagan. Non yopishning o'ziga xos texnologiyasi mavjud bo'lgan.

Samarqand bozorlari milliy hunarmandchilik buyumlari bilan ham mashhur bo'lgan. Samarqandning mashhur Urgut bozorida oldinlari ham, hozir ham maxsus kashta, do'ppi, hunarmandchilik buyumlari sotiladigan rastalari bo'lgan.

Moddiy madaniyat durdonalaridan bo'lgan Urgut kashtalari

va do'ppilari nafaqat mintaq, balki butun Turon bo'ylab ham juda mashhur bo'lgan. Urgut qizlari 7 yoshdan boshlab so'zana, joynamoz, tagpech, joypesh, zardevor, bo'g'jama, belbog', do'ppilar tikishni boshlaganlar. Urgutda kashta tikishni qizlar onalaridan o'rgangan.

20-yuzyillikda asosan, o'simliksimon bezaklar va turli geometrik shakllardan iborat naqshlar tikilgan. Kashtado'zlar to'ldirib gul sotib tikiladigan bosma, kandaxayor, iroqi, puriya, ilmoq, baxtalchoq uslublaridan keng foydalanishgan. Ushbu davrda Urgut Respublikaning boshqa hududlaridan o'zining qubbali miltido'zi do'ppilari bilan ajralib turgan. Bunday do'ppilarini ayollar ham erkaklar ham kiygan. Biroq 20-yuzyillikning 60-yillaridan boshlab Samarqand, shu jumladan, Urgutda ham azaliy an'anaviy do'ppilarni kiyish va tikish kamaygan, ularning o'rniga Andijon hamda Chust do'ppilari egallagan. Hozirgi kunda Samarqand bozorlari, shu jumladan, Urgut bozorlarida ham Andijon hamda Chust do'ppilari bilan ko'proq savdo qilinishi va mahalliy aholi ham an'anaviy do'ppilardan ko'ra Andijon hamda Chust do'ppilari kiyayotganligi kuzatiladi. Shuningdek, Samarqand bozorlari Marg'ilon atlas, Namangan va Qo'qon kosiblari tomonidan tayyorlangan oyoq kiyimlar, Chust hamda Shahrixon pichoqlari sotiladigan maxsus rastalar ham mavjud.

Bozorlar ichi yoki yon atrofida ustaxonalar, sartaroshxonalar, choyxonalar, shuningdek, kurashchilar, dorbozlar, qo'g'irchoq teatri artistlarining tomoshalari doimiy o'tkazilib turilgan. Bozor va savdo joylarining yonida jome' va mahalla masjidleri, madrasa hamda hammomlar joylashgan. Xullas, bozorlar faqatgina tijorat emas, ijtimoiy hayotning zaruriy madaniy, ilmiy va adabiy faoliyatlari ham amalga oshiriladigan markazlar edi. Oldinlari bozorlarda nafaqat savdo-sotiq, shu bilan birga ijtimoiy va madaniy muammolar ham hal etilgan. Masalan, bozorlarda hukmdorlarning farmonlari o'qib eshittirililar va gunohkor kimsalar jazolanar edi.

Hunarmandlarning bozorda joylashgan do'konlari bir vaqtning o'zida bir emas, bir nechta vazifani bajargan. Avvalo, bunday do'konlarda ishlab chiqarilgan mahsulot shu yerning o'zida sotilgan. Ya'ni, temirchi, misgar, zargar, pichoqchi, yog'och buyumlar tayyorlovchi hunarmandlar o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida u bilan savdo ham qilganlar. Bozor savdosida molni nasiyaga berish usuli ham keng qo'llanilgan. Asosan, qassoblar, to'n, do'ppi bilan savdo qiluvchilar hamda zargarlar orasida savdoning bunday usul nisbatan keng tarqalgan.

Bozorlar nafaqat shaharlar, shu bilan birga uning atrofidagi

iqtisodiy hayotning rivojlanishiga ham ijodiy turtki bo'lgan. Shahar atrofi va qishloqlarda yetishtirilgan mahsulotlar – paxta, zig'ir, g'alla, sholi, tamaki, chorvachilik va boshqa mahsulot turlariga shaharlarda talab katta bo'lgan. Bunday mahsulotlar shahar hunarmandlari uchun asosiy xomashyo hisoblangan. Bu esa ko'plab hunar turlari, xususan, qishloq ehtiyojlarini qondirishga ixtisoslashgan sohalarning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Shu tariqa, shahar iqtisodiyotining yetakchi sohasi – hunarmandchilik bilan qishloqlar o'rtasida vujudga kelgan o'zaro aloqadorlik, bir tomondan, qishloqlardagi iqtisodiy taraqqiyot, ikkinchidan esa, shahar xo'jaligi, shu jumladan, bozorlarning rivojlanishiga asosiy turtki bergan.

Turon bozorlari ko'plab umumiy ko'rinishlarga ega bo'lishi bilan birga ba'zi shaharlarda mavjud savdo tarmoqlari boshqasida uchramagan. Masalan, ayrim manbalarda ipakchilik keng taraqqiy etgan hududlarda "bozori bargi tut" nomi bilan mashhur bozorlar bo'lganligi tilga olinadi. Jumladan, "Samarqandda 19-yuzyillikda bunday bozor mavjud bo'lib, ipak qurti boquvchilar barg tanqisligi sezilganda, uni shu yerdan sotib olganlar. Shahardagi Sherdor madrasasi yonidagi ko'chat bozorida esa boshqa daraxtlar bilan bir qatorda tutning "balxiy" va "xorazmiy" navlari keng miqyosda sotilgan" [Адамолли 1872, 5].

Buxoro va Samarqand shaharlaridagi bozorlarda maxsus qo'lyozma kitoblar sotiladigan joylar ham bo'lgan. Shuningdek, 17-yuzyillikgacha Samarqanddan boshqa mamlakatlarga eksport qilinadigan mahsulotlar ichida yozuv qog'ozlari alohida o'rinda turgan. O'rta asr manbalari va o'sha davr mualliflarining yakdillik bilan e'tirof etishicha, Samarqand qog'ozi o'zining yuksak sifati – pishiqligi, yupqaligi va yozuvga qulayligi bilan ajralib turgan. Mashhur davlat arbobi va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, "bu davrda dunyodagi eng yaxshi qog'oz Samarqandda tayyorlangan" [Бабур 1958, 62]. 17-yuzyillikning 30-yillarida yashagan Mahmud ibn Vali "Samarqand tovari – qog'oz" [Махмуд ибн Вали 1977, 54] deb yozgan edi. Samarqand qog'ozi Sharq va G'arb mamlakatlariga olib borilgan.

Shuningdek, Samarqandda qog'oz bilan bog'liq yana bir hunar-muqovasozlik keng rivojlangan edi. Muqovasozlar ustaxonalarida usta-"sahhof"lar turli qo'lyozmalarni muqovalash bilan shug'ullangan. Bunday ustaxonalar shaharning gavjum yeri – bozorlarda joylashgan. XVI asr boshlarida muqovasoz Mullazodaning do'koni Samarqanddagi "Bozori attaron"da joylashgan edi [Болдырев 1939]. Bozorlarda keyinchalik esa qo'qonlik ustalar

tomonidan tayyorlandigan yozuv qog'ozlari ham sotilgan.

Samarqandda yirik markaziy bozorlar bilan birga shahar guzarlarida joylashgan kichik bozorlar ham mavjud bo'lgan. Ularda, asosan, kundalik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, baqqollik mollari bilan savdo qilingan. Jumladan, bunday savdo muassasalari jumlasiga Marmar, Sartepa, Toshohur, Xo'ja Ahror va shu kabi ko'plab universal dehqon bozorlarini kiritish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Turonning boshqa mintaqalarida bo'lgani singari Zarafshon vohasidagi bozorlar ham turli, asosan, shahar yoki qishloq nomi bilan yuritilgan. Ayni vaqtda haftaning qaysi kunida bozor bo'lishiga qarab *"Payshanba bozor"*, *"Juma bozor"* va hokazo nomlar bilan yuritilgan.

Yuqorida ma'lum bir hududda bir vaqtning o'zida bir nechta bozor faoliyat ko'rsatganligi qayd etilib, ularda asosan, nima bilan savdo qilinganligiga qarab ham bozorlar nomlangan. *"Mol bozor"*, *"Don bozor"*, *"O'tin bozor"* kabilar shular jumlasidandir. Shuningdek, bozor ma'lum bir etnik jamoa g'uj joylashgan hududda faoliyat yuritsa, o'sha etnik jamoa nomi bilan atalgan. Masalan, *"o'zbek bozor"*, *"tojik bozor"*, *"arab bozor"* va hokazo.

Bozorlarda savdo-sotiq jarayonlari

Shahar va bozorlarda joylashgan choyxonalar ham etnoslararo muloqotlar bo'lib o'tadigan o'ziga xos jamoat joyi hisoblangan. Odatda, bunday choyxonalarda aholi ovqatlanib, dam olishi bilan birga turli etnik jamoalar orasida savdo kelishuvlari ham yuz bergan. Bundan tashqari, choyxonalar musofirlar uchun tunab qolish joyi – mehmonxona ham hisoblangan. Bu kabi choyxonalarda olisdan bozorga mol olib kelgan aholi tunab ham qolgan. Faqat shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu bozorlar mahalliy aholini savdo-sotiq ehtiyojlarini qondirish bilan birga yirik shaharlardagi xorijiy mollarni qishloq bozorlariga tarqalishida o'ziga xos "uzatuvchi" vazifasini ham bajargan.

Bozor savdosi haqida gap ketganda, shuni ham qayd etish kerakki, aksariyat hollarda xaridor bilan sotuvchi orasidagi bitishuvda dallolning roli katta bo'lgan. Turon xalqlarida o'tmishda keng tarqalgan dallolchilik instituti qachondan boshlanganligi haqida biror bir aniq ma'lumot aytish mushkul, ixtiyorimizda bu haqida aniq ma'lumotlar hozircha mavjud emas. Ehtimol, ushbu "kasb" o'z tarixiy ildizi bilan qadimga – xalqlar o'rtasida tovar ayirboshlash munosabatlari vujudga kelgan davrlarga borib taqalsa kerak. Chunki, vositachilik savdo-sotiq munosabatlarida muhim

ahamiyat kasb etgan.

Samarqandning chorva bozorlarida oldinlari ham, hozir ham, asosan, turli o'zbek urug'i vakillari bilan birga mahalliy arablar asosiy dallollar hisoblangan. Dallol sotuvchi va xaridor o'rtasidagi savdo aloqalariga vositachilik qilar ekan, molni ayni vaqtdagi narxini yaxshi bilgan. Imkon qadar har ikki tomon uchun ham maqbul narxda oldi-sotdini amalga oshirishga harakat qilgan. Mol oldi-sotdisi amalga oshgach, dallolning xizmat haqi sotuvchi tomonidan to'langan.

Tashqaridan keladigan savdogarlar o'z mamlakatlarining pullarini bozorlardagi sarrofxonalarda mahalliy pulga almash-tirganlar. Bu yerlarda ko'pincha yirik ishbilarmonlar to'planganlar. Sarroflar ayni paytda vositachi vazifasini ham bajargan.

Sharq hunarmandlari tomonidan yaratilgan va qolaversa, boshqa yurtlardan olib kelingan turli-tuman mahsulotlarni sotish ichki va tashqi savdo hamda iqtisodiy inshootlar – bozorlar, do'konlar hamda karvonsaroilar tizimi rivojlangan. Shuningdek, hunarmandchilik va savdo o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik natijasida savdo-sotiqning rivojlanishi hamda shahar aholisining ma'lum ma'noda tabaqalanishi va savdo jarayoniga boshqa ijtimoiy soha vakillarining ham faol tortilishiga olib kelgan [Арзамова 2000, 11]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Turon shaharlarida jamiyatning turli vakillari – mansabdor shaxslar, hunarmandlar, savdogarlar, ziyolilar va boshqalar bilan bir qatorda yirik yer egalari ham yashar edi. Bu esa bevosita Turon shaharlari tarixiy taraqqiyotining ayrim davrlarini G'arbiy Yevropadan ajratib turuvchi xususiyatlardan biridir [Мукминова 1985, 130].

Xulosa

Xullas, yuqorida bayon qilingan materiallarga asoslanib aytish mumkinki, Samarqand bozorlari tarixi va ularning shakllanishi hamda rivojlanishi Turon sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Mintaqada bozorlar faqat iqtisodiy munosabatlar amalga oshiriladigan makon sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy institut sifatida faoliyat yuritgan.

Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, Turon hududida 9–10 yuzyilliklar boshlab bozor munosabatlarining institutsionallashuvi va ixtisoslashuvi jarayoni kuzatilib, bu holat 15–16 yuzyilliklarga kelib yanada takomillashgan. Samarqand bozorlari ushbu jarayonda shahar iqtisodiyotining yetakchi sohasi bo'lgan hunarmandchilikning ekin-tikinchilik va tashqi savdo tizimlari bilan bog'lovchi markaziy

bo'g'in vazifasini bajargan. Natijada bozorlar orqali o'troq va ko'chmanchi madaniyatlar, shahar va qishloq o'rtasida o'zaro bog'liqlik mustahkamlanib, bu esa har ikki muhitning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim asos bo'lgan.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar yana shundan dalolat beradiki, Samarqand bozorlarining ichki tuzilishi, jumladan, chorsu, tim, rasta kabi me'moriy va funksional elementlari Turon shaharsozlik an'alarining yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Ixtisoslashgan bozorlar tizimi esa tovar ayirboshlash samaradorligini oshirish bilan birga ishlab chiqarish va taqsimot jarayonlarining jadallashuviga ham xizmat qilgan. Qolaversa, bozorlar turli etnik guruhlar o'rtasidagi muloqot, madaniy almashuv va ijtimoiy moslashuv jarayonlarining muhim maydoni bo'lib xizmat qilgan. Bu holat o'z navbatida, mintaqadagi etnomadaniy jarayonlarning rivoji va o'zaro ta'sirini kuchaytirgan.

Umuman olganda, Samarqand bozorlari tarixi bozor institutining ko'p vazifali mohiyatini – iqtisodiy, ijtimoiy va etnomadaniy jihatlarni uyg'un holda mujassam etgan. Shu bois ham ular nafaqat shahar iqtisodiyotining rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lgan, balki Turondagi sivilizatsiyalar tarixi, etnomadaniy jarayonlar va iqtisodiy tarixni o'rganishda ham muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- Агзамова, Г. 2000. *Сўнги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик ва савдо*. Тошкент.
- Адамолли, Ю. 1872. "Разведение шелковочных червей в Средней Азии." В *Материалы для статистики Туркестанского края*, вып. 1, 5. СПб.
- Болдырев, А. Н. 1939. "Мемуары Зайн-ад-дина Васифи как источник для изучения культурной жизни Средней Азии и Хоросана на рубеже XV–XVI веков." В *Труды отдела истории и культуры и искусства Востока Государственного Эрмитажа*, т. 2.
- Истахрий. 2019. *Китаб ал-масалик вал-мамалик*. Тошкент: Фан.
- Махмуд ибн Вали. 1977. *Море тайн относительно доблестей благородных (География)*. Ташкент.
- Мукминова, Р. Г. 1985. *Социальная дифференциация населения городов Узбекистана в X–XVII вв.* Ташкент.
- Расторгуева, В. С., и Е. К. Молчанова. 1981. "Среднеперсидский язык." В *Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки*. Москва.
- Хорошхин, А. П. 1876. "Самарканд." В *Сборник статей, касающихся Туркестанского края*, 184–238. СПб.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 1989. *Бобурнома*. Тошкент.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 1958. *Бабурнаме*. Ташкент.

Зоҳидов, П. Ш. 1996. *Меъмор олами*. Тошкент.

Қораев, С. 1978. *Географик номлар маъноси*. Тошкент.

The History and Distinctive Features of Samarkand Markets

Adhamjon Ashirov¹

Abstract

This article analyzes the history of Eastern markets and their distinctive ethnocultural characteristics based on historical and ethnographic sources. It provides insightful information on the emergence of *chorsu*, *tim*, and *caravanserais*, their architectural structure, and their role in social life, particularly in the development of Eastern markets as administrative centers during the medieval period.

The study also presents new data on the specific features of markets in the region, including those of Samarkand. These features are reflected in the existence of specialized markets such as food markets; clothing markets including traditional garments, footwear, and skullcaps; silk markets; jewelry and blacksmiths' markets; as well as paper, cotton, grain, and rice markets. In addition, markets dealing in grocery goods, as well as those associated with specific days of the week such as "Thursday Market" and "Friday Market," are discussed. Livestock markets including horse, sheep, and cattle markets are also examined, along with their ethnocultural characteristics and spatial distribution.

The author demonstrates scientifically that the markets of Samarkand functioned as a key link between the city's leading economic sector, namely craft production, and the surrounding neighborhoods, rural areas, and neighboring regions. On the one hand, they contributed to economic development in rural areas; on the other, they played a crucial role in the growth of the urban economy. Furthermore, the article highlights the significant role of markets as ethnocultural and social spaces throughout human history.

Key words: *market, trade, merchant, trading row (rasta), communication, chorsu, tim, grocer, money changer (sarraf), commodity,*

¹ Adhamjon A. Ashirov – Doctor of Historical Sciences, Professor, Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

E-mail: adhashirov@yandex.ru

ORCID ID: 0000-0002-3484-1647

For citation: Ashirov, A. A. 2026. "The History and Distinctive Features of Samarkand Markets". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 156 – 168.

neighborhood (*mahalla*), village, *guzar*.

References

- Adamolli, Yu. 1872. "Razvedenie shelkovochnikov chervei v Sredney Azii."
In *Materialy dlya statistiki Turkistanskogo kraya*, vyp. 1, 5. Sankt-Peterburg.
- Agzamova, G. 2000. *So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo*. Toshkent.
- Boldyrev, A. N. 1939. "Memuary Zayn-ad-dina Vasifi kak istochnik dlya izucheniya kul'turnoy zhizni Sredney Azii i Khorosana na rubezhe XV–XVI vekov." In *Trudy otdela istorii i kul'tury i iskusstva Vostoka Gosudarstvennogo Ermitazha*, vol. 2.
- Istakhriy. 2019. *Kitab al-masalik val-mamalik*. Toshkent: Fan.
- Mahmud ibn Vali. 1977. *More tayn otnositel'no doblestey blagorodnykh (Geografiya)*. Tashkent.
- Mukminova, R. G. 1985. *Sotsial'naya differentsiatsiya naseleniya gorodov Uzbekistana v X–XVII vv.* Tashkent.
- Rastorguyeva, V. S., and E. K. Molchanova. 1981. "Srednepersidskiy yazyk."
In *Osnovy iranskogo yazykoznaniya. Sredneiranskie yazyki*. Moskva.
- Xoroshxin, A. P. 1876. "Samarkand." In *Sbornik statey, kasayushchikhsya Turkestanskogo kraya*, 184–238. Sankt-Peterburg.
- Zahiriddin Muhammad Bobur. 1958. *Boburname*. Tashkent.
- Zahiriddin Muhammad Bobur. 1989. *Boburnoma*. Toshkent.
- Zohidov, P. Sh. 1996. *Me'mor olami*. Toshkent.
- Qorayev, S. 1978. *Geografik nomlar ma'nosi*. Toshkent.